

YANGI O‘ZBEKISTONDA MARIFIY TARG‘IBOTNING FALSAFIY MASALALARI

M.T.Vaxabov

SamDVMCHBU katta o‘qituvchisi, f.f.b.f.d. (PhD)

L.O‘.Jamolov

SamDVMCHBU dotsenti

Annotasiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma’naviyat sohasiga aloqador maqsadlarini amalga oshirishda ma’rifiy targ‘ibotning dolzarbligi va zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar. Marifat, ma’rifatli jamiyat, konsepsiya, yangi O‘zbekiston, moddiy va ma’naviy, obyektiv va subyektiv, taraqqiyot strategiyasi, targ‘ibot, ma’rifiy targ‘ibot, mohiyat, tabiat, jamiyat, inson.

PHILOSOPHICAL ISSUES OF EDUCATIONAL ADVOCACY IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article substantiates the relevance and necessity of educational advocacy in implementing the goals of the Development Strategy of New Uzbekistan in the sphere of spirituality.

Keywords. Enlightenment, enlightened society, concept, New Uzbekistan, material and spiritual, objective and subjective, development strategy, advocacy, educational advocacy, essence, nature, society, human.

ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ПРОПАГАНДЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье обосновывается актуальность и необходимость просветительской пропаганды в реализации целей Стратегии развития Нового Узбекистана в сфере духовности.

Ключевые слова. Просвещение, просвещённое общество, концепция, Новый Узбекистан, материальное и духовное, объективное и субъективное, стратегия развития, пропаганда, просветительская пропаганда, сущность, природа, общество, человек.

Kirish. «Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat» konsepsiyasini amalga oshirish 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida 71-maqсад tarkibiga kiritilgan, ammo «ma’rifatli jamiyat» o‘zi nima, u qanday amalga oshiriladi, uning obyektiv va subyektiv omillari, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlari nimalardan iborat, degan savollarga javob berilmagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi» asarida ushbu masalaga kengroq o‘rin ajratgan, «Ma’naviy taraqqiyot»

deb nomlangan beshinchi bo‘limning «Ma’rifatli jamiyat sari» 5-bandida ushbu tushunchaga chizgilar berilgan. Ayni paytda «ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi»ni mukammal va puxta tarzda yaratish kerakligi ta’kidlangan. Ma’rifiy targ‘ibot esa, garchi kategoriya sifatida falsafiy lug‘at va qomuslarga hozircha kiritilmagan bo‘lsa-da, lekin «Ma’rifatli jamiyat» konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi shubhasiz. Quyida marifat, marifatli jamiyat va ma’rifiy targ‘ibot borasidagi fikrlarimizni bayon etamiz.

Asosiy qism. Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy «aql markazlari»mizni shakllantirishni talab etmoqda. Prezident afsus bilan ta’kidlaganidek, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Shu ma’noda, Ma’naviyat va ma’rifat, «Taraqqiyot strategiyasi», Islom sivilizasiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy «aql markazlari»ga aylanishi kerakligi ta’kidlandi.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu boradagi chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik hamda sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu o‘ta dolzarb va murakkab vazifani ado etishning muhim omili – ma’rifiy targ‘ibotdir. Biz ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif beramiz: «ma’rifiy targ‘ibot» - ma’naviy targ‘ibot-tashviqotning muhim tarkibiy bo‘lagi, ajralmas qismi bo‘lib, aholi, ayniqsa yoshlar orasida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar bilimlarni keng yoyish, ma’rifiy jamiyat a’zolarining bilim saviyasini oshirish, ilmiy-falsafiy dunyoqarashini kengaytirishga yo‘naltirilgan ta’sir vositasidir.

Ma’rifiy targ‘ibotning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, eng katta, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlikka raxna solish, turli xalqlar o‘rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar mavjud. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo, doimiy hushyorlik va ogohlik, butun xalqimizning birligi va hamjixatligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayni paytda, bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozim;

ikkinchidan, islohotlarning pirovard – maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash, eng muhim vazifamiz – taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga yetkazish ekan, buning uchun ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ma’rifatli jamiyatni barpo etish lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning eng kuchli vositasi – ma’rifiy targ‘ibotdir;

uchinchidan, milliy o‘zligimizni saqlab qolish, asrlar sinovidan o‘tgan an’analarimizni, iymon-e’tikod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot

strategiyasining maqsadini amalga oshirish uchun ham zamonaviy texnologiyalarga tayanadigan, innovasion yondashuvlardan foydalanadigan ma'rifiy targ'ibot zarur;

to'rtinchidan, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatparvar davlat", degan shior yurtimiz rahbariyati tomonidan maydonga tashlangan, "Yangi Uzbekiston – ma'rifatli

jamiyat" konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan ekan, uning muvaffaqiyatli ado etilishi ham ko'p jihatdan samarali ma'rifiy targ'ibotga bog'liq bo'lib qolaverdi. Zotan, ma'rifatli jamiyatni aynan shu turdagi keng ko'lamli targ'ibot va ta'lim-tarbiyasiz amalga oshirish mumkin emas.

Bu, avvalo, hayotimizning milliy-g'oyaviy asoslarini davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning ma'naviy yuksalishiga erishish demakdir. O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirish va boyitishni anglatadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asarida ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning 4 ta omiliga alohida ahamiyat qaratilgan:

1) aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish;

2) davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

3) talaba yoshlar va professor-o'kituvchilarda Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;

4) ushbu yo'nalishda ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish.

Bizning fikrimizcha, ma'rifiy jamiyat barpo etish uchun yana quyidagi jihatlariga, omillar va shart-sharoitlarga alohida ahamiyat berish lozim:

birinchidan, xalq maorifi tizimini tubdan isloh qilish. Bu borada maktab o'quvchilarini ularning xotirasida deyarli saqlanib qolmaydigan grammatik qoidalarga qaraganda ko'proq chiroyli va mazmunli so'zlashga, mantiqiy tafakkur qilishga, falsafiy mushohada yuritishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, ta'lim tizimiga tortilmagan aholini, birinchi navbatda, uyushmagan yoshlarni ma'rifatli qilish choralari ko'rish, buning uchun tashkiliy, institusional, huquqiy bazani shakllantirish, pirovardida, uyda o'tirib qolgan, ma'rifatli jamiyatga yot bo'lgan turli urf-odatlar, bid'at va xurofotlarga beriladigan toifalar bilan ma'rifiy targ'ibot ishlari olib borish;

uchinchidan, mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarish, ma'rifiy targ'ibot materiallarini tarqatish, kichik hajmli, qiziqarli nashrlarni ko'paytirib, aholiga yetkazish;

to'rtinchidan, "Taraqqiyot strategiyasi"ning 71-maqsadida belgilangan: ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyotstrategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish uchun masha shu g'oyani ommalashtiradigan plakat, buklet va risolalar tayyorlash;

beshinchidan, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovasion uslublari ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish maqsadidan kelib chiqib, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati faoliyatini qayta ko'rib chiqish va h.k.

Hozirgi paytda ushbu jamiyat olib borayotgan tadbirlar ko'proq mafkuraviy, siyosiy targ'ibot xarakteriga ega bo'lib qolmoqda. Vaholanki, bunday targ'ib me'yoridan oshgan holatlarda teskari samara berish xavfi yuzaga keladi. Shuning uchun "mafkuraviy targ'ibotdan – ma'naviy targ'ibot sari" g'oyasini amalga oshirish vaqti yetdi.

Bizning tadqiqotlarimiz ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniya rasmiy kanallarga qaraganda tijorat kanallari, nodavlat studiyalar ko'proq ommalashganini ko'rsatadi. Chunonchi, O'zbekiston – 24 telekanaliga qaraganda Zo'r-TV, "Sevimli", "Mening yurtim" kanallari ko'proq tomoshabinga ega. Shundan kelib chiqib, rasmiy kanallarda beriladigan xabarlarni real hayotga moslash, faqat bir tomonlama yutuqlarni targ'ib qilmasdan, kamchilik va og'ishlarni ham ochib tashlash zarur.

Ushbu masalaning dolzarbligi Taraqqiyot strategiyasining 71-maqsadida ham quyidagicha qayd etilgan: "Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish".

Aynan shu maqsadning «Mahalla – tuman – viloyat - respublika» prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, degan bandiga biz, mana shu kesimda ma'rifiy targ'ibot tadbirlariga ko'proq e'tibor berish degan fikrni kiritishni lozim topdik.

Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish jarayonida ma'rifiy targ'ibot mezonlarini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash" to'g'risidagi band ham ma'rifiy targ'ibot bilan to'ldirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Yana bir muhim vazifa – mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish ekan, bu olib borilayotgan keng miqyosli ishlarni mantiqiy yakuniga yetkazish zarur. Albatta, ushbu jabhada ham xalqaro maydonda munosib o'rin egallash yo'lida zamonaviy innovasion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan

islohotlarni amalga oshirish milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor jihati bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida, yaqinda chop etilgan asarida ham ta'kidlangan kuchli bir fikrga e'tibor qaratish lozim. Dunyoda ma'naviy tahdidlarning, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani, ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ma'rifiy targ'ibot sohasida qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'lami juda katta va qirralari serobdir. Shuning uchun juda qisqa muddatlarda "Ma'rifiy targ'ibot" konsepsiyasini ishlab chiqish, ushbu hujjat rasmiy organlarda tasdiqdan o'tgach, uning asosida ish rejasi va amaliy dastur tayyorlash zarur. Mana shunday nazariy-g'oyaviy asos bilan qurollangan ma'rifiy targ'ibotchilar jamoasini shakllantirish, ushbu xayrli ishga barcha fan vakillari, jamoat arboblari, san'at va madaniyat xodimlari, ta'lim-tarbiya fidoyilarini jalb etish – muvaffaqiyatga erishishning asosiy kalitidir.

ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot *strategiyasi* to'g'risida. // 2022 yil 28 yanvar // <https://lex.uz/docs/5841063>

2.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022. B.288-292.

3.Shavkat Mirziyoyev. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida Nutq. 2017 yil 19 sentyabr. //

4.Kant. Otvet na vopros: Chto takoye prosveshcheniye (1783). <https://iphra.ru/uplfile/philec/gou/kant.pdf>

5.Ming bir hadis. Toshkent, "Kamalak". 1991. B.65.

6.Ilmning ahamiyati.*Muhammad Ali Muhammad Yusuf tarjimasi* // <https://islom.uz/maqola/4623>

7.Kun hikmati 40: Imom G'azzoliyilmhaqida. // <https://ziyouz.uz/hikmatlar/kun-hikmati/kun-hikmati-40-imom-gazzoliy-ilm-haqida/>

8.Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2003. B.45.